
Buvayda tuman ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida ilmiy uchrashuv bo'lib o'tdi

Tumanimiz bo'ylab o'tkazilayotgan "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun" shiori ostida "Mahallada duv-duv gap" ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-madaniy tadbiri bu gal Buvayda tumani ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli Yadro fizikasi ilmiy instituti direktori, akademik Sodiqov Ilhomjon Ismoilovich tashrif buyurdi. Tadbir davomida yurtimizda yoshlar siyosatiga Prezidentimiz tomonidan alohida e'tibor berilayotganligi, "2024-yil - Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinganligi haqida to'xtalib o'tildi. Ushbu yilda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ishlar mazmun-mohiyati tushuntirib berildi.

Akademik Sodiqov Ilhomjon maktabda yaratilgan sharoitlar, kimyo, fizika, biologiya loybaratoriya xonalari bilan tanishib o'quvchilar bilan birga tajribalar amalga oshirdi.

2024-01-24 18:55:27